



Buxoro viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2026-yil yanvar-fevral oylari uchun

- I. Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2026-yilning 1- mart holatiga ko'ra viloyatda 3 341 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 746 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 22,3 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 529 tasi (15,8 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 306 tasi (9,2 %) to'qimachilik ishlab chiqarishga, 308 tasi (9,2 %) kiyim ishlab chiqarishga va 303 tasi (9,1 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-fevral holatiga ko'ra





II. Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan **7 749,3** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi **108,0** % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Buxoro viloyati	7 749,3	108,0
<i>tumanlar:</i>		
Olot tumani	242,7	107,3
Buxoro tumani	206,0	107,8
Vobkent tumani	185,3	117,1
G'ijduvon tumani	751,6	114,3
Kogon tumani	353,2	107,8
Qorako'l tumani	166,6	107,6
Qorovulbozor tumani	2 733,2	109,7
Peshku tumani	319,2	116,6
Romitan tumani	379,5	107,4
Jondor tumani	210,0	107,6
Shofirkon tumani	177,3	105,2
Buxoro sh.	807,3	112,3
Kogon sh.	328,3	114,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumanida (**133 282,2** ming so'm), Kogon shahrida (**4 988,8** ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (**3 704,2** ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **106,4** % ni tashkil etgan bo'lsa, Vobkent tumanida (**115,0** %), Peshko' tumanida (**114,6** %), qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-fevral oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-fevral oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **7 015,4** mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (**90,5 %**)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda **32,8** mlrd so'm (**0,4 %**), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **631,1** mlrd so'm (**8,2 %**) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda **70,0** mlrd so'm (**0,9 %**) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar-fevral oylarida





III. Yirik sanoat korxonalaridan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda quyidagi mahsulotlar ishlab chiqarildi: avtomobil benzini – 90,9 ming t, yumshoq bug‘doy va spelta uni - 382,9 tonna, ip gazlamalari - 886,0 ming kv.m, xom yoki tozalanmagan oltingugurt – 114,7 t, o‘simlik yog‘i (tozalangan) – 1 311,0 t.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral*	2025-yil yanvar-fevral*	2026-yil yanvar-fevral
Aroq-ming l 100% li spirt	654,5	260,0	252,5
Avtomobil benzini, ming t	182,3	162,9	173,5
Xom yoki tozalanmagan oltingugurt, t	231,3	150,2	156,1
Dizel yoqilg‘isi, ming t	29,4	23,4	63,5
Mazut, ming t	12,0	8,7	9,4
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t	639,0	2 844,7	2 551,6
Paxta tolasi, t	17 674,0	19 090,2	20 761,0
Paxta chigiti, t	29 001,0	29 686,0	20 943,0
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t	4 796,6	2 899,8	3 143,7
Ip gazlamalari, ming kv.m	3 007,2	2 855,4	1 920,5

*2024 - yilning yanvar-fevral oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Jami sanoat tarkibidagi koks va neft mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 34,7 % (2025-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 108,1%), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,0 % (2025-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,5 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2025-yilning yanvar-fevral oylarida 0,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 2,4 % (3,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 50,7 % (47,4 %), quyi texnologiyali 46,8 % (49,1 %) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi (yirik korxonalar bo‘yicha)

2026-yilning yanvar-fevral oylarida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 105,9 % ga ko‘paygan, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 82,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral*	2025-yil yanvar-fevral *	2026-yil yanvar-fevral
---------------------	-------------------------	--------------------------	------------------------



Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	314,6	301,9	319,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	200,5	194,5	160,9

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlarini taqsimlash bo'yicha xizmatlar **22,6** % ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda **73,2** % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarish kuzatilmadi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral *	2025-yil yanvar-fevral *	2026-yil yanvar-fevral
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	4 004,1	5 129,6	7 471,2
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln so'm	66,5	71,6	68,1
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlar mln so'm	25 667,2	29 084,1	34 411,7

*2024 -yilning yanvar-fevral oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 895,2 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,4 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-fevral oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 38,8 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi boʻyicha uslubiy tushuntirishlar va metamaʼlumotlar

Sanoat bu – xom-ashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini oʻzlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq isteʼmoli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmogʻi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi boʻyicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni mahsulot turlari boʻyicha shakllantirish Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (OʻzDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bugʻ va konditsiyalangan havo, suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yigʻish va qayta foydalanish boʻyicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat boʻyicha statistika maʼlumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) maʼlumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shugʻullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi maʼlumotlari; e) uy xoʻjaliklari kuzatuvi materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi boʻyicha taʼrif



Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Buxoro viloyat Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M. Dehqonov
65 223-80-42 (8010)

